

## SO‘ROQ GAPLARDA PRESUPPOZITSIYANING QO‘LLANISHI

*Ozotboyeva Maxfuza Ravshan qizi*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslik masalalariga e‘tibor qaratilgan. Presuppozitsiya hodisasi va uning so‘roq gaplarda qo‘llanish o‘rinlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. So‘roq gaplar va presuppozitsiya hodisasining nazariy asoslari haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy tilshunoslik, pragmatika, so‘roq gap, presuppozitsiya

## ANNOTATION

This article focuses on the issues of modern linguistics. Special emphasis is placed on the phenomenon of presupposition and its use in interrogative sentences. The theoretical foundations of interrogative sentences and the phenomenon of presupposition are described.

**Key words:** modern linguistics, pragmatics, interrogative sentence, presupposition

Bizga ma‘lumki, hozirgacha tilshunoslikda o‘z yechimini topmagan muammolar talaygina. Tadqiqotchilarning olib borayotgan ilmiy ishlari va izlanishlari natijasida ushbu muammolar o‘z yechimini topmoqda. Zamonaviy tilshunoslik sohasida ham tadqiqot olib borilishi kerak bo‘lgan bir qator masalalar mavjud. Jumladan, so‘roq gaplarda presuppozitsiyaning qo‘llanishi masalasi hozirgacha o‘rganilmagan. Ammo so‘roq gaplar pragmatik jihatdan tahlil qilingan bir qator ishlar mavjud. Muhabbat Haynazarova Mirjalovna “ So‘roq gaplarda shakl va mazmun nomunofiqligi” [Toshkent, 1999], Marhabo Umurzaqova Egamberdiyevna “ O‘zbek tilida segment qurilmalarning lingvopragmatik tadqiqi” [Toshkent, 2009] kabi ilmiy ishlar pragmatika, semantika va so‘roq gaplarning pragmatolingvistikaga oid tadqiqiga bag‘ishlangan. Shunday bo‘lsa-da, so‘roq gaplarda presuppozitsiyaning qo‘llanishi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim deb topdik.

Bilamizki, so‘roq gap bir qancha turlarga bo‘linadi. Ushbu maqolada umumiy so‘roq gaplarning presuppozitsiyasiga to‘xtanildi.

So‘roq gaplarda so‘roq ma‘nosidan tashqari yashirin hukm, tasdiq-inkor, so‘roq darak, so‘roq-buyruq, sodda-murakkablik belgilari ham kuzatilishi mumkin. [Haynazarova, 1999: 16-b]

Presuppozitsiya – yashirin hukm. Muloqot qatnashuvchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo‘shimcha, ikkilamchi ma‘lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat

qatnashuvchilarining bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lajak jarayon haqidagi oldindan ma‘lum bilimlari kabi omillar ta‘sirida nutqiy maydonga chiquvchi hodisadir.

- **Bu yer yutkur qanday balo ekan?... Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong‘i bo‘lsam-chi!**

So‘roq olmoshlari yordamida yasalgan so‘roq gaplarning aksariyatida presuppozitsiya ifodalangan bo‘ladi. Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasidan olingan ushbu nutqni tahlil qilamiz. U bu qanday balo ekan, deb so‘rayotgan jarayonning qanday ekanligini, qay tarzda kechishi va hammada bu holat yuz berishini biladi. Ya‘ni so‘roq shaklida aytilyotgan bo‘lsa-da, unda darak hukmi mavjud. So‘roq gap tarkibida “homiladorlik” yoki “boshqorongi” so‘zlari ishlatilmayotgan bo‘lsa-da, so‘zlashuv jarayonidagi muhit va “qanday balo” so‘zlari ushbu terminlarga ishora qilmoqda. Ya‘ni so‘roq olmoshi tarkibiga ushbu so‘zlar “yashiringan”. Darak mazmunidagi gapni so‘roq gap tarkibiga yashirishdan asosiy maqsad nutqiy emotsiollikni oshirish, presuppozitsiya orqali yanada ta‘sir kuchiga erishishdan iborat.

- **Men sizga bir narsa deyapmanmi? Tikib qo‘yarman. (“Anor”, A.Qahhor).**

Ushbu nutq egasi dialog jarayonida “bir narsa” deganini biladi. Bu tinglovchiga ham, so‘zlovchiga ham ayon. Nimadir degan bo‘lsa ham, tan olmaslik, norozilik kayfiyatini so‘roq gapga yuklagan holda ifodalagan. Ya‘ni qahramon “Bu gapga arzigulik men xech narsa demadim”, “Men gapirmadim”, “Men qilmayman deganim yo‘q” kabi yashirin ma‘nolarni ifodalagan. Berilgan so‘roq gap orqali darak-tasdiq ma‘nosi tinglovchiga anglashiladi.

Bundan tashqari ma‘noga aniqlik kiritish maqsadida ham ohang yordamida yasalgan so‘roq gaplarda presuppozitsiya hodisalari qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin.

- **Ho‘kizmi?... Ho‘kiz ekan-da! Hmm... Ola ho‘kiz? Tavba!..**

Savol javob shaklida keltirilgan ushbu nutqda savol ham, javob ham bitta shaxs qadrlil narsa ekanligini yana bir bora eslatish maqsadida so‘roq shalida qayta-qayta aytiladi. Ya‘ni, so‘roq so‘z gap tarkibiga ho‘kizning darajasini oshirish vazifasi yuklatilgan.

- **Men seni bundan ogohlantirmagan edimmi? (nutqdan)**

Ushbu so‘roq gap o‘tmishga murajjat qilmoqda. Savolning javabi o‘zida. Lekin, nutq so‘zlovchi va tinglovchigagina ayon. Uchinchi shaxs bu nutqdagi presuppozitsiyani nima ishora qilinyotganini, nimadan ogohlantirganligini anglay olmaydi. O‘sha o‘tmishda suhbat jarayonida kim qatnashgan bo‘lsagina bu yerdagi presuppozitsiyani “yecha oladi.

Xulosa o‘rnida presuppozitsiyaning so‘roq gaplarda qo‘llanishi juda katta tadqiqot ishi bo‘la oladi. Chunki, Presuppozitsiyaning anglatadigan turli xil ma‘nolari, so‘roq gaplarning har bir turida ishlatilishi mumkin. Buni tadqiq qilish va yoritish tilning boyligi va tejamkorligidagi holatida ham o‘ziga xosliklarini ochib beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika . – Toshkent, 2008
2. Haynazarova M. So‘roq gaplarda shakl va mazmun nomunofiqligi. Filol. fan. nom. ... diss - T., 1999
3. Umurzaqova M. O‘zbek tilida segment qurilmalarning lingvopragmatik tadqiqi. Filol. fan. nom. diss - T., 2019
4. U. Rahimov. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. fan. nom. diss. Avtoref. - Samarqand, 1994. 23- b
5. N.Mahmudov., Nurmonov A O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995
6. [www.kitobdunyosi.uz](http://www.kitobdunyosi.uz)

Familiya	Ozotboyeva
Ismi	Maxfuza
Otasining ismi	Ravshan qizi
Davlat, shahar	O‘zbekiston, Xorazm
Ish joyi	Xorazm viloyati Hazorasp tumani 13-maktab
Maqola nomi	So‘roq gaplarda peresuppozitsiyaning qo‘llanishi
E-mail	maxfuzaozotboyeva@gmail.com
Telefon raqam	+998977757808